



## SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-dekabr oylari  
uchun dastlabki ma'lumot

## SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bolimi:  
(67) 236-70-00*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 849,6 mln. AQSH dollariga yetdi va 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 35,9 mln. AQSH dollariga yoki 4,4 % ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: 849,6 +4,4 %



Saldo

(2022- y.: 813,6)

2023- y.: - 183,3 (2022 y.: - 158,3)



#### Eksport

2023- y.: 333,2 +1,7 %



Tovarlar: 331,1

(2022- y.: 327,6)

Xizmatlar: 2,1



#### Import

2023- y.: 516,4 +6,3 %



Tovarlar: 516,4

(2022- y.: 486,0)



Xizmatlar: -

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 333,2 mln. AQSH dollariga (1,7 % ga ko'paydi) va import hajmi 516,4 mln. AQSH dollariga (6,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 183,3 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



## **SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**

*(2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)*

Rossiya	XXR	Afg'oniston	Qozog'iston	Turkiya
<b>TSA – 133,5</b>	<b>TSA – 179,9</b>	<b>TSA – 151,5</b>	<b>TSA – 225,9</b>	<b>TSA – 37,0</b>
Eksport: 61,1 Import: 72,4	Eksport: 52,0 Import: 127,9	Eksport: 151,1 Import: 0,4	Eksport: 23,3 Import: 202,6	Eksport: 15,5 Import: 21,5
 15,7 %	 21,2 %	 17,8 %	 26,6 %	 4,4 %
Koreya Respublikasi	Litva	Fransiya	Tojikiston	Qirg'iz Respublikasi
<b>TSA – 3,3</b>	<b>TSA – 8,6</b>	<b>TSA – 2,4</b>	<b>TSA – 7,0</b>	<b>TSA – 10,0</b>
Eksport: 0,0 Import: 3,3	Eksport: 0,3 Import: 8,3	Eksport: 0,0 Import: 2,4	Eksport: 6,1 Import: 0,9	Eksport: 2,8 Import: 7,2
 0,4 %	 1,0 %	 0,3%	 0,8 %	 1,2 %

Sirdaryo viloyati jahoning 54 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (15,7 %), XXRda (21,2 %), Afg'onistonda (17,8 %), Qozog'istonda (26,6 %), Turkiyada (4,4 %) va Koreya Respublikasida (0,4 %) qayd etilgan.



## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollar)*


Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Rossiya</b>	<b>155,9</b>	<b>121,5</b>	<b>133,5</b>
	<i>Eksport</i> 43,2	63,5	61,1
	<i>Import</i> 112,7	58,0	72,4
<b>XXR</b>	<b>112,0</b>	<b>134,1</b>	<b>179,9</b>
	<i>Eksport</i> 48,7	45,9	52,0
	<i>Import</i> 63,3	88,2	127,9
<b>Germaniya</b>	<b>25,5</b>	<b>8,7</b>	<b>4,3</b>
	<i>Eksport</i> 0,1	1,3	0,2
	<i>Import</i> 25,4	7,4	4,1
<b>Qozog'iston</b>	<b>171,1</b>	<b>240,4</b>	<b>225,9</b>
	<i>Eksport</i> 19,5	24,8	23,3
	<i>Import</i> 151,6	215,6	202,6
<b>Turkiya</b>	<b>24,3</b>	<b>36,4</b>	<b>37,0</b>
	<i>Eksport</i> 10,8	20,4	15,5
	<i>Import</i> 13,5	16,0	21,5
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>2,4</b>	<b>9,5</b>	<b>3,3</b>
	<i>Eksport</i> 0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i> 2,4	9,5	3,3
<b>Litva</b>	<b>3,3</b>	<b>3,9</b>	<b>8,6</b>
	<i>Eksport</i> -	-	0,3
	<i>Import</i> 3,3	3,9	8,3
<b>Fransiya</b>	<b>1,1</b>	<b>1,6</b>	<b>2,4</b>
	<i>Eksport</i> 0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i> 1,1	1,6	2,4

Davomi

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>5,1</b>	<b>12,8</b>	<b>10,0</b>
	<i>Eksport</i>	4,0	3,3	2,8
	<i>Import</i>	1,1	9,5	7,2
	<b>Afg'oniston</b>	<b>83,0</b>	<b>127,0</b>	<b>151,5</b>
	<i>Eksport</i>	83,0	125,9	151,1
	<i>Import</i>	0,0	1,1	0,4
	<b>Belarus</b>	<b>1,4</b>	<b>1,7</b>	<b>1,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,7	0,3
	<i>Import</i>	1,2	1,0	1,4
	<b>Hindiston</b>	<b>0,7</b>	<b>1,6</b>	<b>14,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,7	1,6	14,1
	<b>BAA</b>	<b>0,6</b>	<b>0,4</b>	<b>0,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,4	0,1
	<i>Import</i>	0,4	0,0	0,0
	<b>Tojikiston</b>	<b>6,0</b>	<b>16,4</b>	<b>7,0</b>
	<i>Eksport</i>	5,6	14,2	6,1
	<i>Import</i>	0,4	2,2	0,9
	<b>Eron</b>	<b>4,0</b>	<b>5,7</b>	<b>4,8</b>
	<i>Eksport</i>	1,9	2,0	3,6
	<i>Import</i>	2,1	3,7	1,2
	<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>6,3</b>	<b>0,0</b>	<b>0,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
	<i>Import</i>	6,3	0,0	0,1
	<b>Italiya</b>	<b>8,7</b>	<b>45,4</b>	<b>5,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,5	0,0
	<i>Import</i>	8,5	44,9	5,0
	<b>Polsha</b>	<b>1,2</b>	<b>2,3</b>	<b>2,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	1,0	1,0
	<i>Import</i>	0,5	1,3	1,2




## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH doll.)\*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 37,3 % ulush bilan 317,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,2 % ulush bilan 1,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKLATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollarida)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga kamaydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga ko'payib va jami TSAdagi ulushi 55,3 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 379,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 95,3 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 284,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 133,5  
Eksport – 61,1  
Import – 72,4



### Qozog'iston

TSA – 225,9  
Eksport – 23,3  
Import – 202,6



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 10,0  
Eksport – 2,8  
Import – 7,2



### Belarus

TSA – 1,7  
Eksport – 0,3  
Import – 1,4



### Tojikiston

TSA – 7,0  
Eksport – 6,1  
Import – 0,9



### Ukraina


TSA – 1,3  
Eksport – 1,3  
Import – 0,0



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (15,7 %), Qozog'iston (26,6 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,2 %) davlatlari bilan qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollar, ulushi, % da)*



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 371,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 87,5 mln. AQSH dollar, import hajmi esa 283,6 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtaida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar-dekabr)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyori larni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 333,2 mln. AQSH dollarini qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Min. AQSH dollarri		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	327,6	333,2	140,7	101,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	158,0	182,3	146,2	115,4	48,2	54,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	0,0	3,4 m.	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,7	8,7	81,9	68,3	3,9	2,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	0,0	0,0	0,0	51,3	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	0,0	0,0	7,8	0,3	0,0
Kimyoiy vositalar va shunga o'xhash mahsulotlar	18,0	15,6	3,1 m.	86,5	5,5	4,7
Sanoat tovarlari	103,0	94,7	136,4	92,0	31,4	28,4
Mashinalar va transport asbob-uskulunlari	8,5	6,2	132,8	72,8	2,6	1,9
Turli xil tayyor buyumlar	23,5	23,2	117,5	98,8	7,2	7,0
Xizmatlar	2,9	2,1	193,3	72,8	0,9	0,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (28,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (54,7 %) va turli xil tayyor buyumlar (7,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-dekabr)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollarri	2022-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	147 903,4	120,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	5,9	2,1
Sabzavotlar va mevalar	34 274,8	112,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	26,5	24,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	111,6	558,0 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	7,0	20,5
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	5 139,3	67,6
Qog'oz massasi va makulatura	2 608,1	70,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	4 065,9	58,6
Birlamchi shakldagi bo'limgan plastmassalar	5 137,9	48,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3 461,0	30,8 m.

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollarri	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	65 239,1	90,4
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	11 676,8	89,4
Cho'yan va po'lat	743,4	98,2
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	16 399,5	109,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoq qismlari	28,8	10,0
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	5 697,0	83,7
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	22 096,1	110,4
Har xil tayyor buyumlar	607,6	36,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	454,7	68,9

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kirdi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga 95,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 25,1 % ni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 93,4 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, % da)






## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	63 920,0	61 092,7	147,9	95,6	10	6
Turkiya	20 367,5	15 471,2	188,0	76,0	8	10
XXR	45 948,7	51 984,4	94,4	113,1	16	4
Qozog'iston	24 856,3	23 304,1	127,5	93,7	13	7
Afg'oniston	125 898,0	151 053,9	151,7	119,9	9	3
Qirg'iz Respublikasi	3 346,1	2 804,6	83,4	83,8	17	8
Tojikiston	14 190,5	6 093,7	2,4 m.	42,9	7	11
BAA	647,3	102,4	3,2 m.	15,8	6	16
Pokiston	11 161,1	8 560,9	131,8	76,7	12	9
Niderlandiya	42,6	0,0	142,0 m.	0,0	1	17
Eron	2 025,8	3 580,5	108,6	176,7	14	2
Belarus	726,0	288,8	4,2 m.	39,8	2	12
Polsha	1 017,2	991,8	147,7	97,5	11	5
Ozarbayjon	1 307,4	269,3	3,6 m.	20,6	5	15
Turkmaniston	870,4	264,8	3,7 m.	30,4	4	14
Buyuk Britaniya	0,3	98,7	100,0	301,4 m.	15	1
AQSH	217,5	77,6	4,0 m.	35,7	3	13



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-dekabr, mln.AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri 32,6 % bilan 108,5 mln. AQSH dollarini, eng quyisi esa Shirin shahri 0,3 % bilan 1,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida 84,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan 34,5 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (12,4 %), Pokiston (20,8 %), Qozog'iston (23,7 %), hamda XXR (19,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 34,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 10,3 % ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, qiymati)



Pomidor	Karam	Olma	Piyoz
<b>1 371,9 ming. AQSH dollari</b>	<b>1 836,1 ming. AQSH dollari</b>	<b>123,7 ming. AQSH dollari</b>	<b>3 945,2 ming. AQSH dollari</b>
999,1 tonna	12 731,2 tonna	348,7 tonna	25 594,2 tonna
Uzum yangi yoki quritilgan	Grek yong'og'i	Bodring	Limon
<b>742,3 ming. AQSH dollari</b>	<b>184,3 ming. AQSH dollari</b>	<b>198,2 ming. AQSH dollari</b>	<b>41,4 ming. AQSH dollari</b>
963,6 tonna	85,9 tonna	263,0 tonna	42,3 tonna

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollarri	Ulushi, % da *
Rossiya	7 549,2	4 246,5	12,4
Pokiston	3 760,1	7 140,5	20,8
Qozog‘iston	51 007,5	8 150,1	23,7
XXR	9 409,5	6 701,2	19,5
Afg‘oniston	2 234,9	1 947,7	5,7
Belarus	329,1	288,8	0,8
Tojikiston	1 413,4	577,5	1,7
Boshqa davlatlar	8 312,1	5 222,5	15,4

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog‘istonga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 23,7 %) tashkil qilmoqda.



## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 516,4 mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalar (27,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (34,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (15,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar- dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga va 516,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>486,0</b>	<b>516,4</b>	<b>112,2</b>	<b>106,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	207,4	177,3	142,6	85,5	42,7	34,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	21,4	15,5	156,2	72,6	4,4	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	18,0	40,4	32,8	2,2 m.	3,7	7,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	7,2	9,7	68,6	134,8	1,5	1,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	80,9	79,3	160,5	98,0	16,6	15,4
Sanoat tovarlari	27,2	30,8	94,1	113,2	5,6	6,0
Mashinalar va transport asbob-uskulalari	113,1	144,1	93,6	127,4	23,3	27,9
Turli xil tayyor buyumlar	10,8	14,1	124,1	129,7	2,2	2,7
Boshqa tovarlar	-	4,8	-	0,0	0,0	0,9



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollarri	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	154 248,1	86,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	56,0	16,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	8 509,7	69,8
Tirik hayvonlar , 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	8 653,5	83,9
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	3 676,8	44,0
Probka va yog'och-taxtalar	5 126,6	74,6
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5 635,1	198,0
Ko'mir, koks va briketlar	34 780,9	2,3 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	9 720,5	135,0
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	22,4	94,4
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 411,3	85,8
Birlamchi shakldagi plastmassalar	38 651,9	90,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	10 524,5	115,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	15 091,9	111,8


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollarri	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	9 152,5	146,2
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 800,7	194,1
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	4 957,1	196,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	8 499,3	68,1
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	12 822,0	17,8 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	74 946,4	97,2
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	46 340,3	178,4
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	6 505,5	2,0 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	5 611,9	2,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	2 401,9	115,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarini uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5 242,7	100,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	372,8	54,7

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2023- yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 284,5 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % ga kamaydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSH dollarri)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyati 50 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Germaniya, Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Fransiya) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, % da)





**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI  
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar-dekabr, yillar kesimida)


Davlatlar	Ming. AQSH dollarari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Germaniya	7 440,6	4 137,9	29,4	55,6	18	13
Rossiya	57 986,8	72 401,4	51,5	124,5	15	9
XXR	88 186,5	127 853,7	139,3	145,0	10	6
Qozog'iston	215 849,4	202 551,1	142,4	93,8	7	10
Turkiya	16 027,2	21 462,4	118,6	133,9	12	8
Koreya Respublikasi	9 464,1	3 294,9	3,8 m.	34,8	4	17
Litva	3 907,9	8 321,0	119,4	2,1 m.	11	4
Fransiya	1575,7	2 354,9	141,8	149,4	8	5
Niderlandiya	3 420,1	1 719,6	54,1	50,2	14	16
Turkmaniston	4 184,3	36,8	49,0	0,9	16	20
Hindiston	1 519,0	14 087,5	139,7	9,2 m.	9	1
Belarus	961,2	1 374,8	80,3	143,0	13	7
Italiya	44 884,6	5 046,4	5,3 m.	11,2	2	19
Buyuk Britaniya	24,2	102,4	42,2	4,2 m.	17	3
Eron	3 626,6	1 217,4	167,5	33,6	6	18
Polsha	1 289,3	1 198,1	2,5 m.	92,9	5	11
AQSH	73,4	359,6	24,8	4,8 m.	19	2
Estoniya	266,8	147,3	5,0 m.	55,2	3	15
Avstrya	1 109,2	612,9	9,5	55,3	20	14
Qirg'iz Respublikasi	9 455,2	7 188,7	8,7 m.	76,0	1	12



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR

### KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH doll.)



2022- y.

2023- y.

**Eng yuqori hajm,**

mln. AQSH dollarari

45,0 %

**Sirdaryo - 232,4**

19,7 %

**Yangiyer sh. - 101,8**

8,9 %

**Guliston sh. - 45,7**

**Eng quyi hajm,**

mln. AQSH dollarari

0,4 %

**Guliston - 2,3**

0,7 %

**Oqoltin - 3,7**

0,1 %

**Shirin sh. - 0,5**

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 45,0 % bilan 232,3 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,1 % bilan 0,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI





Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi 144,1 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan 27,4 % ga ko'paydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi 27,9 % ni tashkil qildi.



## MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-dekabr)




2023- yil yanvar-dekabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,0 mln. AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Hindiston — 13,0 mln. AQSH dollari (9,0 %), XXR — 76,4 mln. AQSH dollari (53,0 %) va Turkiya – 15,0 mln. AQSH dollari (10,4 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 30,8 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,2 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 6,0 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-dekabr)

**10,9 mln. AQSH doll.  
ulushi – 35,3 %**



Rossiya Federasiyasi

**8,7 mln. AQSH doll.  
ulushi – 28,3 %**



XXR

**6,7 mln. AQSH doll.  
ulushi – 21,8 %**



Qozog'iston



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (8,5 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (4,8 mln. AQSH dollari), ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (5,0 mln. AQSH dollari), rangli metal (0,7 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.